

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR
SOHASI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLDAGI
PROGNOZLARINI ISHLAB CHIQUISH**

Zarikeyeva Miyasar Maratovna

*Iqtisodiyot fanlari falsafa doktori., Samarqand Davlat
veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasi
katta o‘qituvchisi.*

e-mail: m.zarikeyeva@gmail.com

Telefon: +99 897 561 10 91

Annotatsiya: Hozirgi sharoitda servis sohasi iqtisodiyotning dinamik sektoriga aylanib bormoqda shu sababdan maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2027-yilga qadar servis sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga ko‘ra xizmatlar hajmini oshirishning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Xizmatlar sohasi, servis, ARIMA model, MAPE ko‘rsatkichi, prognoz, determinatsiya koeffitsienti.

Аннотация: В современных условиях сфера услуг становится динамичной отраслью экономики, поэтому в статье описано развитие инновационной деятельности в сфере услуг в Республике Каракалпакстан до 2027 года и Разработаны прогнозные показатели увеличения объема услуг на основе повышения качества услуг.

Ключевые слова: Сфера услуг, сервис, модель ARIMA, показатель MARE, прогноз, коэффициент детерминации.

Abstract: In the current conditions, the service sector is becoming a dynamic sector of the economy, therefore, the article develops forecast indicators for increasing the volume of services in the Republic of Karakalpakstan in order to develop innovative activity in the service sector and improve the quality of services until 2027.

Keywords: Service sector, service, ARIMA model, MARE indicator, forecast, coefficient of determination.

Kirish

Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlashda servis sohasini samarali rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etib, bu borada, jumladan Qoraqalpog‘iston Respublikasida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu vazifalarni hal etishda servis sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish va

xizmatlar sifatini oshirish, sohada innovatsion tadbirkorlikni keng joriy etish, servis sohasida innovatsiyalarni boshqarishning samarali usullarini ishlab chiqish kabi yo‘nalishlardagi ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning muhimligini ikkita holat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, barcha hududlarda bo‘lgani kabi xizmatlar sohasi iqtisodiy taraqqiyotning asosi hisoblanadi. Ikkinchidan, xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun zaruriy sharoitlar hamda resurslar boshqa sohalarga nisbatan tabiiy va iqlim omillariga yuqori darajada bog‘liq emas. Shuningdek, zaruriy resurslarni inson shakllantirish imkoniyatiga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Jahonda tobora keskinlashib borayotgan raqobat talablariga ko‘ra servis sohasini samarali rivojlantirishda sohada innovatsion faoliyatni yanada faollashtirish va xizmatlar sifatini oshirish yo‘nalishidagi tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bugungi kunda xizmatlar sohasining butun tarmog‘ini, sohadan tortib to sanoatgacha, milliy va xalqaro fondlarni boshqarishgacha raqamlashtirish [1], xizmat ko‘rsatish sifati va samaradorligini baholashga yondashuv talablar tarkibida iste‘molchilar xavfsizligini (hayoti, sog‘lig‘i, mulki) ta‘minlashga yo‘naltirilgan xizmatlar xavfsizligini ta‘minlash [2], xizmatlar sohasining mamlakat taraqqiyotini ta‘minlashdagi roli [3], xizmatlar sohasini intensivlashtirish omili sifatida katta ma‘lumotlar ochiqligini ta‘minlash [4], xizmat ko‘rsatish sohasida ekonometrik tahlil va prognozlash masalalari [5], xizmat ko‘rsatish sohasida davriy rivojlanishlarni hisobga olgan holda iqtisodiy tahdidlarni prognoz qilish [6] kabi masalalar xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish tarmog‘ida raqamli texnologiyalardan foydalanishning hozirgi holati va kelajakdagi istiqbollari [7], vaqtli qatorlarni statistik tahlili va mavsumiy tebranishlarni prognozlash [8], xizmat ko‘rsatish sohasi rivojlanishini prognozlash muammolari [9], mintaqada xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash va prognoz ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish kabi masalalar mamlakatimiz olimlari tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot ishida zamonaviy xorijiy va mamlakatimiz iqtisodchilari tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar, yondashuvlar, kontseptsiyalardan nazariy va metodologik asos sifatida foydalanildi hamda respublikamiz olimlari tomonidan yetarli darajada diqqat qaratilmagan jihatlari o‘rganildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, guruhlash, induksiya va deduksiya, statistik va solishtirma tahlil, abstrakt-mantiqiy yondashuv, ekonometrik modellashtirish, prognozashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda ham xizmatlar sohasini rivojlantirish, jumladan savdo xizmatlarini rivojlantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilib kelinmoqda. Xususan,

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 34-maqsadi doirasida hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish vazifasi belgilab berilgan.

Tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, xizmatlar sohasini rivojlantirish ularning hududiy rivojlanishidagi farqlarni bartaraf etish muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tadqiqot obyekti bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasida 2010-2022 yillarda ko'rsatilgan xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat hajmining real qiymati besh barobarga oshgani holda yillik o'rtacha o'sish sur'ati 7,0 foizni tashkil qilgan bo'lishiga qaramasdan, xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymatning ulushini pasayganligi kuzatiladi. Jumladan, 2010-yilda 50,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 38,5 foizga teng bo'lganligi kuzatiladi. Ulushning 2020-yilga qadar pasayish kuzatilgani holda 35,4 foizga qadar kamaygan, asosiy pasayish esa 2018-yilga to'g'ri keladi.

Xizmatlar sohasining ulushini oshirish, sohani rivojlantirish muammolariga alohida e'tibor qaratilayotgan bir davrda bu kabi natijalarni kuzatilishi sohani innovatsion usullar asosida rivojlantirish masalalarini aniq miqdoriy usullar yordamida baholash lozimligini asoslaydi. Xizmatlar sohasini rivojlanishi aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim vosita ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, uning yalpi qo'shilgan qiymatdagi ulushini ham yuqori bo'lishi talab qilinadi.

Xizmatlar sohasini Qoraqalpog'iston Respublikasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatga ta'sirini baholash uchun regression tahlil amalga oshirildi. Tahlil uchun 2010-2022-yillar ma'lumotlaridan foydalanilgan bo'lib, barcha ko'rsatkichlar 2010-yil narxlarida ifodalangan. Model (3.3.1) ifoda bo'yicha ko'rinishga ega bo'ldi.

$$GRP = 3,46 * IND^{0,16} * CON^{0,09} * SER^{0,41} * AGR^{0,36} \quad (1)$$

Bu yerda: *GRP* – Qoraqalpog'iston Respublikasida yaratilgan yalpi hududiy mahsulot mlrd. so'm (2010-yil narxlarida);

SER – Qoraqalpog'iston Respublikasi xizmatlar sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat mlrd.so'm (2010-yil narxlarida);

AGR - Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida yaratilgan qo'shilgan qiymat mlrd.so'm (2010-yil narxlarida);

IND - Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatda yaratilgan qo'shilgan qiymat mlrd.so'm (2010-yil narxlarida);

CON Qoraqalpog'iston Respublikasi qurilish sohasida yaratilgan qo'shilgan qiymat mlrd.so'm (2010-yil narxlarida).

Ishlab chiqilgan model va uning koeffitsientlarini adekvatligi hamda ishonchliligini asoslash uchun zaruriy mezonlarning natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, koeffitsientlarning har birini Student mezoni bo'yicha adekvat ekanligini kuzatish mumkin (1-jadval).

Tarmoqlarda qo‘shilgan qiymatni yalpi hududiy mahsulotga ta‘sirini baholash bo‘yicha amalga oshirilgan regression tahlil natijalari

Model 1: OLS, using observations 2010-2022 (T = 13)

Dependent variable: l_GRP

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>t-ratio</i>	<i>p-value</i>	
const	1,24152	0,103260	12,02	<0,0001	***
l_IND	0,158515	0,00660543	24,00	<0,0001	***
l_CON	0,0898079	0,00730999	12,29	<0,0001	***
l_SER	0,406374	0,0278614	14,59	<0,0001	***
l_AGR	0,356397	0,0249355	14,29	<0,0001	***
Mean dependent var	8,180717		S,D, dependent var		0,297841
Sum squared resid	0,000058		S,E, of regression		0,002683
R-squared	0,999946		Adjusted R-squared		0,999919
F(4, 8)	36958,57		P-value(F)		4,29e-17
Log-likelihood	61,67861		Akaike criterion		-113,3572
Schwarz criterion	-110,5325		Hannan-Quinn		-113,9378
rho	0,127737		Durbin-Watson		1,425589

Determinatsiya koeffitsienti esa model uchun tanlab olingan omillar erksiz o‘zgaruvchining o‘zgarishlarini to‘liq qamrab olayotganligini ko‘rsatmoqda. Fisher mezoni bo‘yicha aniqlangan qiymat 36958,57 ga teng bo‘lib, uning jadval qiymati 3,84 dan juda yuqori qiymatga katta. Shu sababda ushbu mezon bo‘yicha aniqlangan ehtimollik ko‘rsatkichi deyarli nolga teng ekanligini kuzatish mumkin. Durbin – Uatson statistikasiga ko‘ra aniqlangan qiymat 1,43 ga teng, jadval bo‘yicha aniqlangan quyi DL=0,57 va yuqori DU=2,09 qiymatlari ushbu natijaning qarorsizlik oralig‘iga (zone of indecision) tushayotganligidan dalolat beradi. Ushbu oraliqda avtokorrelyatsiya muammosi bor yoki yo‘q deb aytish imkoniyatiga ega bo‘linmaydi.

Agarda tadqiq qilinayotgan davrda 2020-yildagi pandemiya sababli vujudga kelgan pasayishni hisobga olmaganda yillik o‘shish sur‘ati 4 foizdan yuqoriga ega bo‘lgan, prognoz natijalariga ko‘ra esa 2024-2025 yilni hisobga olmaganda o‘shish sur‘ati 4 foizdan kichik bo‘lmoqda.

Ushbu trend modeli davriy tebranishlarni to‘liq ifodalash imkonini bermaganlig hamda oldingi davrdagi o‘zgarishlarni hisobga olmaganligi sababli lag modeli asosida ham prognoz qiymatlari hisoblanildi. Regression tahlil natijalari asosida quyidagi modelga ega bo‘lindi.

$$SER_t = 1,06 * SER_{t-1} \tag{2}$$

Ushbu model natijalariga ko‘ra mintaqada xizmat ko‘rsatish sohasida yaratilgan

qo‘shilgan qiymatning joriy natijalari o‘zidan bir yil oldingi natijalar bilan yuqori bog‘liqlikka ega hisoblanadi. Bu esa sohada barqarorlikni ta‘minlash yuqori o‘shish sur‘atlarining garovi ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu modelning adekvatligini asoslash uchun zaruriy mezonlar, jumladan Styudent mezoni natijalariga aniqlangan koeffitsientning adekvatligini ko‘rsatmoqda. Shuningdek, determinatsiya koeffitsienti ham deyarli birga teng bo‘lmoqda.

Model adekvatlini asoslash uchun keltirilgan mezonlar natijalarini qiyosiy tahliliga asoslanilgan holda mazkur modeldan Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblash uchun foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi assolanildi. Model asosida keyingi besh yil uchun hisoblanilgan prognoz ko‘rsatkichlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi (2-jadval).

2-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning lag modeli asosida hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari

For 95% confidence intervals, $t(11, 0.025) = 2.201$

Yillar	SER	Prognoz	Standart xatolik	95 foiz ishonch oralig‘i
2023	2462,02	106,3	60,1967	(2329,53, 2594,51)
2024	2618,35	106,3	87,8754	(2424,94, 2811,76)
2025	2784,61	106,3	111,165	(2539,94, 3029,28)
2026	2961,43	106,3	132,666	(2669,44, 3253,43)
2027	3149,48	106,3	153,396	(2811,86, 3487,10)

Trend modelidan farqli ravishda lag modeli natijalariga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning yillik o‘shish sur‘atidagi barqarorlik kuzatiladi va har yili 6,3 foizga o‘shishi ta‘minlanadi. Natijada keyingi besh yilda ko‘rsatkichning real qiymati 3149,48 milliard so‘mga yetib, 2022-yilga nisbatan 1,36 barobarga oshishi ta‘minlanadi.

Prognozni ishlab chiqishda foydalanilayotgan ma‘lumot turidan kelib chiqqan holda vaqtli qatorlarda keng qo‘llaniladigan ARIMA modeli asosida ham prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Ma‘lumotlarni statsionarlikka tekshirish uchun Augmented Dickey-Fuller testidan foydalanildi uning natijalariga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning birinchi darajali farqi konstanta bilan statsionar ekanligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanilgan holda ishlab chiqilgan ARIMA modeli quyidagi shaklga ega bo‘ldi.

$$(1 - L)SER_t = 101,35 - 0,99 * (1 - L)\varepsilon_{t-1} \quad (3)$$

Modelning birinchi darajali farqi oq shovqin xususiyatlarini oʻzida jamlamoqda, yaʼni konstanta bilan tasodifiy oʻzgaruvchiga bogʻliq boʻlib qolmoqda. Aniqlangan ikkala koeffitsient ham Styudent mezoni natijalariga koʻra adekvat. Determinatsiya koeffitsienti 0,99 ni tashkil qilgani holda modelning ishonchlilik darajasi yuqoriligidan dalolat bermoqda. Shuningdek, MAPE koʻrsatkichini 1,3 teng boʻlishi model ishonchlilik darajasini yuqori ekanligini asoslamoqda. Ushbu model asosida hisoblangan qiymatlar hamda real qiymatlar orasidagi xatolik darajasini minimal darajadiligini koʻrsatmoqda. Keltirib oʻtilgan mezonlar natijalaridan tashqari bir qator qoʻshimcha mezonlar natijalari ham taqdim qilingan boʻlib, ular ham modelning adekvatligi va ishonchliligini koʻrsatmoqda.

3-jadval

Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qoʻshilgan qiymatning prognoz koʻrsatkichlarini hisoblash uchun ishlab chiqilgan trend modeli natijalari

Model 7: ARIMA, using observations 2011-2022 (T = 12)

Dependent variable: (1-L) SER

Standard errors based on Hessian

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
const	101.354	2.98617	33.94	<0.0001	***
theta_1	-0.999999	0.242320	-4.127	<0.0001	***
Mean dependent var	105.8015		S.D. dependent var		56.88438
Mean of innovations	1.335355		S.D. of innovations		40.28565
R-squared	0.986940		Adjusted R-squared		0.986940
Log-likelihood	-62.66168		Akaike criterion		131.3234
Schwarz criterion	132.7781		Hannan-Quinn		130.7848
	<i>Real</i>	<i>Imaginary</i>	<i>Modulus</i>	<i>Frequency</i>	
MA					
Root 1	1.0000	0.0000	1.0000	0.0000	

Ushbu tahlil natijalariga tayangan holda ishlab chiqilgan ARIMA (0 1 1) modelidan foydalanib 2023-2027-yillar uchun Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qoʻshilgan qiymatning prognoz qiymatlari hisoblandi.

Qoraqalpogʻiston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qoʻshilgan qiymatning ARIMA (0 1 1) hamda trend modellari asosida hisoblangan prognoz koʻrsatkichlari deyarli bir xil qiymat va oʻsish surʼatiga ega boʻlmoqda. Biroq ARIMA (0 1 1) modeli asosida hisoblangan prognoz koʻrsatkichlarining standart xatoligi oʻzgarmas qiymatga ega boʻlishi va nisbatan kichik ekanligi 95 foizlik ishonch oraligʻini ham kichik boʻlishini taʼminlamoqda. Bunda xulosa shuki ARIMA (0 1 1)

modelidan foydalanish trend modeliga nisbatan ishonchliroq.

Ushbu model natijalariga ko‘ra 2027-yilga borib xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning 2770,67 milliardga yetishi aniqlanildi. Bu trend modeli asosida hisoblangandagiga nisbatan deyarli 2,0 milliardga kamdir (4-jadval).


4-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning ARIMA (0 1 1) modeli asosida hisoblangan prognoz ko‘rsatkichlari
For 95% confidence intervals, $z(0.025) = 1.96$

Yillar	SER	Prognoz	Standart xatolik	95 foiz ishonch oralig‘i
2023	2365,26	102,2	40,2857	(2286,30, 2444,21)
2024	2466,61	104,3	40,2857	(2387,65, 2545,57)
2025	2567,96	104,1	40,2857	(2489,01, 2646,92)
2026	2669,32	103,9	40,2857	(2590,36, 2748,28)
2027	2770,67	103,8	40,2857	(2691,71, 2849,63)

Uchala modelning adekvatligini asoslash va ular yordamida ishlab chiqilgan prognoz qiymatlarini tahlili natijalariga ko‘ra ARIMA (0 1 1) modelida xatolik darajasini past ekanligi kuzatildi. Biroq, ushbu model natijalari bilan oldingi davrdagi o‘shish sur‘atlari xuddi trend modelidagi kabi biroz farq qilayotganligini kuzatish mumkin. Shuningdek, trend modelidagi kabi 2020-yildagi pasayish hisobga olinmagan.

Shu sababli model bo‘yicha aniqlangan keyingi besh yildagi o‘rta o‘shish sur‘atlarini 2010-2022 hamda 2017-2022-yillardagi o‘shish sur‘atlari bilan qiyosiy tahlili amalga oshirib o‘tildi (1-rasm).



1-rasm. Turli modellar asosida hisoblanilgan prognoz qiymatlarining o‘rtacha o‘shish sur‘ati va tadqiq qilinayotgan davrlardagi o‘rtacha o‘shish sur‘atlari

Keltirilgan tahlil natijalariga Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning prognoz ko‘rsatkichlarini hisoblashda ARIMA (0 1 1) modelidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligini asoslamoqda. Ya’ni keyingi besh yilda Qoraqalpog‘iston Respublikasida xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning o‘rtacha o‘shish sur‘ati 6,3 foizga teng bo‘lgani holda 1,36 barobarga oshishi ta’minlanadi.

Mazkur ko‘rsatkichning YaHMga ta’sirini ifodalovchi elastiklik koeffitsienti bilan o‘shish sur‘atlari natijalari keyingi yillarda xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning YaHMning har yili 2,6 foizga oshishini ta’minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra mintaqada xizmatlar sohasida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning kelgusi besh yilda yuqori o‘shish sur‘atlari ta’minlanadi va bu YaHMning ham barqaror o‘shish sur‘atlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеева П.О. Механизм совершенствования управления предприятиями сферы услуг. // Дисс канд. Экон. наук. Санкт-Петербург, 2015 г. С.82.
2. Данилин И.В. Модель отношений ТНК и государства в сфере НИОКР: опыт США // ТНК в мировой политике и мировой экономике: проблемы, тенденции, перспективы. М.: ИМЭМО РАН, 2005 г
3. Меджитов А.И. Организационно-экономические основы государственного регулирования инновационного предпринимательства в сфере услуг региона // Дисс. канд. экон. наук. экономика. наук. М.: 2011 г. С.121. https://new-disser.ru/product_info.php?products_id=729859
4. Regional labor markets. Analytical contributions and cross-national comparisons. Ed. by M.Fischer and P.Nijkamp. - Elsevier Science Publishing Co, 1987 y. 500 p.;
5. Романович В.К. Сервисная деятельность: учеб. пос.: под общ. ред. Н. красный В.К.Романовича. // С.Н.Коробкова, В.И.Кравченко, С.В.Орлов, И.Р.Павлова-3-е изд. – СПб.: Питер, 2005 г. с 156.
6. Эконометрика: Учебник. // Под ред. Н. И.И.Елисеевым. М.: Финансовая статистика, 2003 г. с. 344.
7. Ismailov.V.A. Xizmat ko‘rsatish korxonalarini faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida). // Diss. PhD. Nukus: QDU, 2022 y. 82-b.
8. Сауханов Ж.К., Зарикеева М.М. Қорақалпоғистон Республикаси минтақасида хизмат кўрсатиш соҳалари ривожланиш жараёнини иқтисодий таҳлил қилиш ва прогнозлаш // Международная научно-практическая конференция Современные научные решения актуальных проблем. Сборник тезисов научно-практической конференции г. Ростов-на-Дону 2023 г, 37-41 стр. DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.8023082>

9. Po‘latov M.E., Mirzayev Q.J., Sultonov Sh.A., Shavqiyev E. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti). O‘quv qo‘llanma. T.: Fan va texnologiya, 2018 y. 296 b.

10. Qutlimuratov S.P., Zarikeyeva M.M. Assessment of the impact of agricultural production in the field of services // International conference on business management and humanities, 1st November, 2023, Mombay, India, Issue 11, Part 2., 17-19 pp. <http://aidlix.com/index.php/au/article/view/2151>.

11. Shakirova F.B. “Innovatsion rivojlanish negizida barqaror iqtisodiy o‘shish mexanizmini takomillashtirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. T.: 2018-y. 13-14-betlar.

12. Zarikeyeva M.M., “Servis sohasida innovatsion faoliyatni rivojlantirish xa xizmatlar sifatini oshirish (Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. Nukus.: 2024-y. 55 bet.